



**TA'LIM JARAYONIDA VIRTUAL O'QITISH TEXNOLOGIYASINI
JORIY QILISH MAZMUNI VA UNDAN AMALIYOTDA FOYDALANISH
YO'LLARI**

Abdukarimov Farxodjon Maxammataliyevich,
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti,
Qurollanish va otish kafedrası katta o'qituvchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish haqida fikr yuritilgan.

Keywords: Virtual ta'lim, ta'lim texnologiyalari, dasturiy modular, virtual vakilligi, virtual o'qitish, servis xizmatlar, bilim yurti.

Аннотация

В данной статье рассматривается внедрение технологий виртуального обучения в образовательный процесс.

Ключевые слова: Виртуальное образование, образовательные технологии, программные модули, виртуальное представительство, виртуальное обучение, услуги, образовательное учреждение.

Abstract

This article discusses the implementation of virtual learning technologies in the educational process.

Keywords: Virtual education, educational technologies, software modules, virtual representation, virtual training, services, educational institution.

Bugun zamon o'zgardi, turmush tarzimiz hattoki jamiyatimiz kishilarining dunyoqarashi ham borgan sari kengayib bormoqda. Endilikda an'anaviy dars usullaridan ko'ra, noan'anaviy dars o'tish uslublari ko'proq samaraga, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.



Kadrlar tayyorlash jarayonida ta'lim sifatini oshirish maqsadida ta'limning turli texnologiyalaridan foydalanish zarurdir.

Bu borada "Virtual ta'lim" deb nomlangan, ta'lim texnologiyasini misol qilishimiz mumkin. Ushbu ta'lim texnologiyasi o'zining ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bilim yurtining virtual vakilligida o'quv jarayonini tayyorlash va o'tkazish hamda o'qituvchi va kursant bo'lgan asosiy foydalanuvchilarning har qanday toifalarining funksional majburiyatlarini amalga oshirish imkoniyatini ta'minlaydigan o'zaro bog'liq bo'lgan servis xizmatlarining to'plami (dasturiy modullar)ni o'z ichiga oladi. Bunda axborot resurslarining tarkibi va mazmuni bilim yurti tomonidan, servis xizmatlar to'plami namunaviy dasturiy ta'minot bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, virtual vakilligida bu alohida bilim yurtida o'quv jarayonni ta'minlaydigan servis xizmatlar va axborot resurslarning to'liq to'plamini o'z ichiga olgan dasturiy kompleks hisoblanadi. Virtual vakilligida ma'murlashtirish namunaviy metodika asosida o'zining o'qitish metodikasini amalga oshirgan holda asosiy bilim yurtini boshqaradi.

Virtual vakilligida har bir kursantga quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

- o'quv-metodik ta'minoti joylashtirilgan elektron kutubxonadan foydalana olish;
- o'qituvchi bilan elektron pochta orqali muloqat qilish; - har bir o'qitiladigan kurs bo'yicha telekonferensiya; - o'z virtual o'quv guruhining kursantlari bilan muloqat qilish;
- on-line rejimda va bir qator imkoniyatlar bilan o'qituvchidan maslahat olish.

Virtual ta'lim modellari.

Bu ta'lim texnologiyasini bir necha modellari mavjud, ular virtual ta'lim tashkil qilinishiga sabab bo'lgan vaziyatlari bilan farqlanadi: geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik uzoqlashgan regionlar mavjudligi), mamlakatni kompyuterlashtirish va informatsiyalashtirish darajasi, transport va kommunikatsiyalar rivojlanish darajasi, virtual ta'lim uchun mutaxassislar mavjudligi, ta'lim sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi, mamlakatning ta'lim sohasidagi odatlari.

1) Birlamchi model. Ushbu model faqat virtual talabalar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ularning har bittasi virtual o'qituvchiga biriktirilgan bo'lishadi. Konsultatsiyalar va yakuniy nazoratlarni topshirish uchun esa regional bo'limlar



bo'lishi shart. Shunday o'quv kurslarda o'qituvchi va o'quvchilarga o'quv shaklini va formasini tanlashda katta imkoniyatlar va ozodliklar beriladi.

Bu modelga misol qilib Buyuk Britaniyaning Ochiq Universitetidagi (<http://www.ou.uk>) ta'limni olish mumkin.

2) Ikkilamchi model. Ushbu model virtual va kunduzgi ta'lim o'quvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ikkala guruhda bir xil o'quv dasturi va darslar jadvali, imtixonlar va ularni baxolash mezonlari mavjud. Shunday o'quv muassasalarda kunduzgi kurslarning soni virtuellarga qaraganda ko'p. Ushbu virtual kurslar pedagogika va uslubiyotdagi yangi yo'nalishlarni izlanishlarida qo'llaniladi.

Bu modelga misol qilib Yangi Angliya va Avstraliya Universitetidagi (<http://www.une.edu.au>) ta'limni olish mumkin.

3) Aralashgan model. Ushbu model virtual va kunduzgi ta'lim turlirini integratsiyalashtirish uchun yaratiladi. O'quvchilar o'quv kursning bir qismini kunduzgi, boshqa qismini esa virtual o'qiydi. Shu bilan birga bu ta'lim turiga virtual seminar, prezentatsiyalar va leksiylar o'tkazish ham kiradi.

Bu modelga misol qilib Yangi (<http://www.massey.ac.nz>) ta'limni olish mumkin. Zelandiyadagi Massey Universitetidagi

4) Konsorsium. Ushbu model ikkita universitetlarni bir biri bilan birlashini talab qiladi. Ushbu muassasalardan biri o'quv kurslarni tashkil qilib ishini ta'minlasa, ikinchisi esa ularni tasdiqlab, kurslarga o'quvchilarni ta'minlaydi. Shu bilan birga bu jarayonda butun universitet emas balki bitta kafedra yoki markazi yoki universitet o'rnida ta'lim soxasida ishlaydigan korxonalar xam qatnashishi mumkin. Ushbu modelda o'quv kurslarni doimiy ravishda nazorat qilish va muallif xuquqlarini tekshirish zarur bo'ladi.

Bu modelga misol qilib Kanadadagi Ochiq O'quv Agentligidagi (<http://www.ola.bc.ca>) ta'limni olish mumkin.

5) Franchayzing. Ushbu model ikkita universitetlar bir biri bilan o'zlari yaratgan o'quv kurslar bilan almashishadi. Virtual ta'lim soxasida yetakchi bo'lgan o'quv muassasa bu soxada ilk qadam qo'yadigan muassasaga o'zining o'quv kurslarni taqdim qiladi. Ushbu modelda ikkala muassasa o'quvchilari bir xil ta'lim va diplomlar olishadi.



Bu modelga misol qilib Ochiq Universitet Biznes maktabi va Sharkiy Yevropa Universitetlari bilan bo'lgan xamkorligi bo'lishi mumkin.

6) Validatsiya. Ushbu model universitet va uning filiallari bilan bo'lgan munosabatlariga o'xshash. Bu modelda bitta universitet o'quv kurs, diplomlarni kafolatlasa, qolgan bir nechta universitetlar o'quvchilarni ta'minlaydi.

7) Uzoqlashgan auditoriyalar. Ushbu modelda informatsion va kommunikatsion imkoniyatlar keng foydalaniladi. Bitta o'quv muassasada bo'lib o'tgan o'quv kurslar videokonferensiyalar, radiotranslyatsiyalar va telekommunikatsion kanallar orkali sinxron teleko'rsatuvlar ko'rinishida boshqa auditoriyalarga uzatiladi. Aralashgan model bilan farqi shundaki, bu modelda o'quvchilar kunduzgi ta'limda qatnashmaydi.

Bu modelga misol qilib AQShning Viskonsing Universitetidagi va Xitoyning markaziy radio va televideniye Universitetidagi ta'limni olish mumkin.

8) Projektlar. Ushbu model davlat yoki ilmiy izlanish maqsadidagi dasturlarni bajarish uchun yaratiladi. Asosiy ish virtual ta'lim mutaxassisarlari va pedagoglar to'plangan ilmiy-metodik markazga tushadi. Ushbu modelda yaratilgan kurslar axolining katta qismiga namoyish qilinib o'z vazifasini bajargandan keyin to'xtatiladi.

Bu modelga misol qilib Afrika, Osiyo va Lotin Amerikadagi rivojlanmagan mamlakatlarida o'tkazilgan qishloq xo'jaligi, soliqlar va ekologiya haqidagi o'tkazilgan xar xil kurslar bo'lishi mumkin.

Virtual ta'limga asoslangan mashg'ulotlar ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantiradi, mustaqil shug'ullanishlari uchun imkon yaratiladi, o'qituvchi shaxsini kursant bilan individual ishlash imkon beradi. Kursant tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarni kelgusi kasbiy faoliyatida tutgan o'rnini tushunib yetishiga, nazariya bilan amaliyotning birligiga erishishi, uning istiqbolli motivatsiyasini vujudga keltirish orqali shaxsning barkamolligi ta'minlanishi asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda, virtual ta'limga asoslangan mashg'ulotlar tashkil etilsa, virtual ta'limiy resurslardan foydalanilsa, natijada kursantlarda kasbiy bilimlarni to'liq o'zlashtirish va shu asosida ko'nikma malakalarni shakllantirishga erishiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. T.Tojiboyeva Virtual ta'lim muhitida "Hayot xavfsizligi asoslari" fanini o'qitishni samaradorligi. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 I.
2. N.Gulboyev. "Ta'limda axborot texnologiyalari" fani bo'yicha uslubiy ko'rsatma. T.2018.
3. Sh.Sharipov. "Virtual reallikka asoslangan ta'limiy resurslar". Sharx va fikr mulohazalar.T.2010.
4. Мамаражабов Ш. Э. Кредит таълим шароитида бўлажак мутахассисларнинг умумкасбий компетенциясини дифференциал таълим асосида такомиллаштириш имкониятлари //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
5. Ismailova, Z., Baybaeva, M., Mamarajabov, S., Rakhmatullaeva, D., Hodjiev, H., & Abdiev, N. (2022). Factors For Improving The Professional Competence Of Leaders Of Vocational Education Institutions. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2886-2894.